



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI


Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik
2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar


Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM**dagi ulushi **77,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrda **5,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,0** foizga kam demakdir.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1719** ta, sanoatda **1142** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **845** ta, qurilishda **428** ta, yashash va ovqatlanishda **295** ta, axborot va aloqada **71** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

96,9



Sanoat

51,4



Qurilish

86,0



Investitsiya

47,9



Savdo

93,9



Xizmatlar

66,3



Eksport

60,0



Import

89,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

24 395




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

5 050

2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

33,2 %



Sanoat

19,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

15,2 %



Qurilish

11,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,9 %



Tashish va saqlash

3,4 %



Axborot va aloqa

1,3 %




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,5 %



Boshqa faoliyat turlari


8,3 %



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar




Shahar va tumanlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri – 21,1 %, Denov – 11,4 %, Jarqo'rg'on – 7,9 %, Sherobod – 7,5 %, Sho'rchi – 7,3 %, Qumqo'rg'on – 6,3 % va Termiz – 5,3 % hissalari to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1719 ta

Sanoatda

1142 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida

845 ta

Qurilishda

428 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 11,8 birlikni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*

2019- y.

8,3

2020- y.


10,8

2021- y.

11,8

2021- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 25,7 birlik, Termiz shahrida 24,2 birlik, Qiziriq tumanida 14,2 birlik, Boysun tumanida 13,3 birlik, Sherobod tumanida 11,8 birlikni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 25,7 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

Bandixon tumani
- 10,4 birlik.

Past ko'rsatkich

Sariosiyo tumani
- 8,5 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 77,3 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-dekabrda 77,1 %).

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 141,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 60,0 % ini tashkil etdi.



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Denov tumanida - 99,8 % ni, eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 15,7 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **186,2** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **89,6 %** ini tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon - 100,0 %, Boysun - 100,0 %, Qiziriq - 100,0 %, Muzrabot - 100,0 %, Uzun - 99,2 %, Oltinsoy - 99,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 28,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3488,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (748,4 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (348,2 mlrd. so'm), Denov (343,8 mlrd. so'm), Sho'rchi (313,7 mlrd. so'm) va Muzrabot (250,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (43,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **51,4 %** ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon (100,0 %), Muzrabot (100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Qiziriq (100,0 %), Boysun (94,7 %), Denov (82,5 %), Angor (73,9 %) va Sho'rchi (56,4 %) tashkil etdi. Sherobod tumanida (24,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **14164,5** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,9 %** ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **11,1 %** ga oshganligi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (3482,6 mlrd. soʻm), Termiz shahri (2481,8 mlrd. soʻm), Shoʻrchi (1293,6 mlrd. soʻm), Sherobod (817,0 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (783,3 mlrd. soʻm) va Angor (655,2 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5039,7** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **86,0 %** ni tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **115,2 %** ni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʼati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (1336,8 mlrd. soʻm), Termiz (511,8 mlrd. soʻm), Denov (413,2 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (371,2 mlrd. soʻm), Muzrabot (346,6 mlrd. soʻm), Sherobod (334,9 mlrd. soʻm) va Sariosiyo (330,9 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

■ hajm, mlrd. soʻm

○ oʻsish surʼati, %



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6889,2** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,3 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **119,7 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Termiz shahri (1269,8 mlrd. soʻm), Denov (840,7 mlrd. soʻm), Jarqoʻrgʻon (464,8 mlrd. soʻm), Sariosiyo (448,2 mlrd. soʻm), Sherobod (430,7 mlrd. soʻm), Qumqoʻrgʻon (424,6 mlrd. soʻm) va Shoʻrchi (420,0 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 80,9 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,8 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **912** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 254 (27,9 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 593 (65,0 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 65 (7,1 %) ta subektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 8,0 % (73 ta), sanoatda - 14,9 % (136 ta), qurilishda - 12,8 % (117 ta), savdoda - 37,2 % (339 ta), xizmatlar sohasida - 27,1 % (247 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (155 ta), Denov (121 ta), Jarqo'rg'on (79 ta), Qumqo'rg'on (64 ta), Sherobod (61 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 31,0 % ni, qurilishda 29,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 27,4 % ni va xizmatlarda 25,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoat sohasida 70,6 % ni, xizmatlarda 68,8 % ni va savdoda 63,4 % ni tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli

bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 56,5 %ni, savdo sohasida 55,0 %ni, sanoatda 52,9 %ni, tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoat sohasida 48,5 %ni, xizmatlarda 42,9 %ni, savdoda 42,5 %ni tashkil etdi.

